



## QAHRAMONLIK EPOSLARDA MOTIVLARNING TUTGAN O'RNI

Reymova Dinara

Ajiniyoz nomidagi NDPI Turkiy tillar fakulteti Magistratura bo'limi

Qaraqalpoq tili va adabiyoti 2-kurs talabasi

<https://www.doi.org/10.37547/ejsspc-v03-i03-p1-02>

### ARTICLE INFO

Received: 22<sup>th</sup> February 2023

Accepted: 28<sup>th</sup> February 2023

Online: 02<sup>nd</sup> March 2023

### KEY WORDS

Folklor, dostonlar, motiv, ilmiy-nazariy qarashlar, fikrlar.

### ABSTRACT

*Maqolada qahramonlik dostonlarda motivning syujet rivojida tutgan o'rni haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, motiv va syujetning o'zaro bo'g'liqligi tahlil qilingan.*

Xalq og'zaki ijodkorligi namunalarning qaysi turi yoki janri bo'lishiga qaramasdan, bo'lak va butun, butun va bo'lak munosabatlar asosida quriladi. SHuning uchun qaysidir folklor namunasining umumiy syujetini "butun" deb olsak, uning ichidagi motiv "butun"ni yaratishga xizmat etuvchi bo'lak sifatida kórinadi. Yoki boshqacha aytqanda, B.N.Putilov mana bunday tushuntiradi: "Folklor olami motivlar orqali tasvirlanadigan cheksizlikka ega, lekin oxir-oqibatda tizimlashtirish va hisobga olish uchun qulay bo'lgan mativlar jamlanmasidan iborat" (B.N.Putilov "Motiv kak syujetoobrazuyushiy element").

Ilmiy kitoblarda, adabiyotshunoslik so'zlikarida motiv atamasiga berilgan tushunchalar har turli. Ularning ayrimlari bir-birini to'ldirishga xizmat qilsa, ayrimlari qarama-qarshi mazmuni ifodalaydi.

Motiv (francuzcha "motiv», latincha «moveo» - harakatlanuvchi) ko'p ma'noli tushuncha.

Rus adabiyotshunoslaridan biri V.B.SHklovskiy motivni mavzu bilan bog'lab "Motivni asarning mavzusi bilan bog'lash kerak" degan fikrni aytib o'tkan. B.V.Tomashevskiy motivni boshqacha tushuntiradi: "Motiv tushunchasi – bu umumlashkan tushunchadir, u asardagi hamma jihatlarni birlashtirib turadi. Asardagi har bir bo'limning o'z mavzusi bor. Ushbu mavzularni bo'lib o'rganib boraversak, ajralmaydigan bo'lakga yetib boramiz, deb aytib o'tadi.

Motivni folklordagi syujetining juda zarur elementi sifatida qaragan dastlabgi mutaffakkirlar deb A.N.Veselovskiy, J.J.Frezer, V.YA.Propp, K.Levi-Stroy, A.Dandes, A.N.Samaylovich, V.M.Jirmunskiy, E.M.Meletinskiy, V.P.Anikinlarni atab o'tsak bo'ladi.

A.N.Veselovskiy ózining "Tarixiy poetika" asarida: "Motiv syujetni jamlavchi asosiy mavzu ( Ota va bola o'rtasidagi kurash, bir qator epik syujetlarning asosiy mativi), syujetga yoki uning zarur bo'lgan qismiga umir beradigan qurollarning bir turi(transformაციyalar, qahramonliklar), natijasida syujetning elementi sifatida tekstda aniq vazifani amalga oshiruvchi sxema ko'rinishida harakat etuvchi asosiy o'zak hisoblanadi. "Ushbu syujet negizi ruxiy tarafdin boshqa bo'laklarga ajratilmaydi" , - deb nazariy asosin yaratib berdi.



Jahon folklorida o'zining "Sexirli ertaklar morfologiyasi", "sexirli ertaklarning tarixiy mavzulari" kabi fundamental ilmiy-nazari asarlar bilan katta hissa qo'shgan rus folklorshunosi V.YA.Propp motiv haqqida A.N.Veselovskining "motiv syujet tarkibida ruvxiy tarafdin boshqa bo'laklarga ajralmaydi" degan fikirni bekor qilib "motivni faqatgina syujet sistemasida, syujetni bo'lsa syujetler salishtirmasida o'rganish mumkun" degan fikirni bildiradi. Fikriga dalil sifatida quyidagi misolni keltirib o'tadi.

"Shoxning qizini kashshay o'g'irlyadi". "Biz ushbu misolni mativ sifatida oladigan bo'lsak, Uni ruvxiy tarafdin bir necha bo'laklarga ajratib tashlasak bo'ladi. "Shox"ning o'rniga "savdogar"ni, "qiz"ning o'rniga bir "sexirli" buyimni, "Kashshay"ning o'rniga "yalmog'iz kampir"ni hamda "o'g'irlash"ning orniga "hiyla bilan qo'lga kiritish", - dep yozadi.

Yana bir folklorshunos olim B.N.Putilov: "Motiv syujetning o'zagidir",-dep dalillaydi va quyidagilarni bildirib o'tadi: "Motivni subiekt - (harakat) holat kombinatsiyasi sifatida qisqacha tariflash mumkun. U belgili darajada erkinlikka ega, sababi u erkin, o'ziga tan ma'nolarni o'z ichiga oladi va u har hil syujetlar, hattoki har hil janrlarda mativlar ko'rinishida amalga oshirish mumkun. SHuning bilan birga mativ, toliq izalyatsia (ajratib qo'yish) etilmaydi, u boshqa mativlarga semantik va konstruktivlik tarafdin to'g'ri keladi", - deb aytadi. Bu fikirlari bilan mutaffakkir o'zidan oldingilarining ko'z-qarashlarini yanada rivojlantiradi.

O'zbek adabiyotshunosligi va folklorshunosligidagi mativlar haqida fikirlar jahon adabiyotshunosligidagi fikirlar bilan mos keladi.

M.Afzalov ózbek xalq erteklerini klassifikatsiyalab, ayrim mativlar haqida umumiy fikirlarni keltirib o'tadi. G'.Jalolov bo'lsa "Ózbek xalq ertaklari poetikasi" kitobida ertaklardagi mativ va obrozar masalasiga alohida bo'lim ajratib, safar, tush, ko'rinishni o'zgartirish, uydan quvulishga o'xshagan bir qancha mativlarni alohida-alohida tushuntiradi. SHunday qilib, folklorida shuning ichida qaxramonlik dostonlarda mativ asosiy xizmatni bajaradi. U yana syujetni paydo qilib turadi. Dostonlarda farzandsizlik motivi, botirning g'ayritabiy tug'ulishi motivi, tush motivi, isim qo'yish motivi, safar motivi, ot va qurol-yaroq tanlash motivi, uylanish motivi, urushni tariflash motivi, qaxramonga tarif berish motivi va boshqalarni ko'plab keltirishimiz mumkun. Bular qaxramonlik dostonlardagi dasturiy mativlar hisoblanadi.

Qoraqalpoq dostonlaridagi tush motivini olib qaraymiz. Tush motivi sinov, uylanish, safar, qaytishga o'qshagan keyingi mativlar bilan uzviy bog'liq holda keladi. Doston syujetining keyingi "tag'diri", anashu tush motivi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Agar Alpomish, Gulparchin va Qorajon tush ko'rmaganida, Qorajon Alpomish bilan do's tutunmagan va voqiyalar kechinmasi boshqacha rivojlangan bo'lib, bu bo'lsa syujetning o'zgarishiga olib kelgan bo'lar edi.

Epik ijodkorlikda mativlar hamiysha rangbarang bo'ladi. SHu sababdan syujetda har bir mativ o'ziga tan vazinga ega. Motivlarning o'z aro bir-biriga bog'liqligi, syujetdagi turg'unligi hamisha bir ko'rinishda bo'lavermaydi. SHuning uchun ularni ikki yo'nalishda olib qarasak bo'ladi. Birinchisi, qaysidir motivning tushib qolishi, yoki o'zgarishi syujetda ham tub burilish bo'lishiga olib keluchi turg'un mativlar. Bunday mativlar asarning qurilishida mustahkam o'ringa ega bo'ladi. Ikkinchidan, mativlar o'zgarishi hech qanaqa syujetning o'zgarishiga olib kelmaydi. Bunday mativlar boshqa bir mativ bilan alamshtirish mumkun bo'lgan doimiy



orniga ega emas motivlar. Qoraqalpoq xalq dostonlarida tushlarni kimlar, qaysi holatda ko'rishiga qaramasdan, doston syujeti va voqealar jarayoniga bog'liqligiga qarab ikki katta guruxga ajratish mumkin.

1. Butun asar davomida o'z tastig'ini topib borishi, qaxramonlarning umri va taqdirini nisbatan to'liq o'z ichiga oladigan tushlar.

2. Syujetning belgili belgili bir bo'g'inlari qaxramonlar umrining u yoki bu davriga tegishli tushlar.

Qaxramonlik dostonlar xalqning ozod va obod turmushga yetishishdagi orzu armonlarini anglatadi. Bu ijodiy namunalar xalqimizning o'tmishi, madaniyati, urf-odati, diniy ishonchi bilan uzviy bog'liq.

Yakunlab aytadigan bo'lsak, ertaklardag kabi dostonlarda ham tush motivi boshqa motivlar bilan bog'liqlikda, asarning kirish qismida, voqealarning rivojida, yakunida kelishi mumkin. Lekin dostonlardagi tush motivi xalqning ishonchidagi ko'z-qarashlari, simblar orqali qaxramonlarning ruxi xolat, taqdirin chuqur o'rganish, yuqori badiiy estetik zavqda bo'lishi, odatda sher ko'rinishida ifoda etilishi bilan ham ajralib turadi.

### References:

1. Dáwqaraev N. Shigarmalarini toliq jynagi II tom N, «Qaraqalpaqstan», 1977.
2. Abdijalaliov A. Folkorda motiv tusinigi. «Adabiy meros» jurnali, T., 2021, №2, - B.107-111.
3. Maqsetov Q. Qaraqalpaq qaharmanliq dastanlarini poetikasi. T., «FAN», 1965.
4. Maqsetov Q. Qaraqalpaq xalqini kórkem awizeki xalq dóretpeleri. N., «Bilim», 1996.
5. Járimbetov Q, Nizamatdinov J, Allamberganova I. Qaraqalpaq folklori. T., «Sano-standart», 2018.
6. Palimbetov K. Qaraqalpaq xalq dastani «Qoblan». N. «Bilim», 2020.
7. Eshonqul J. Mif va badiiy tafakkur. T., 2019.